



## **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRINING BUYRUG‘I**

09.08.2022

180-um-son

### **O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimining qo‘llanilish sohasini yanada kengaytirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda huquqiy xizmat ko‘rsatishda adliya organlari va muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 17-martdagi PF–89-son Farmoniga muvofiq Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy boshqarmalari hamda Intellektual mulk agentligi va uning hududiy markazlarining vazifa, funktsiya va vakolatlari Adliya vazirligiga o‘tkazilganligini hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi markaziy apparati faoliyatida ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi” xalqaro standartini qo‘llash sohasini kengaytirish maqsadida

#### **BUYURAMAN:**

1. Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimida belgilangan maqsadlariga mos keladigan va ularga erishishga ta’sir qiluvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan o‘rganish natijalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi markaziy apparati faoliyatida ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi”ni qo‘llash sohalari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi (J. Uzaqov) O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi markaziy apparati faoliyatida ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi” xalqaro standartini qo‘llash bo‘yicha belgilangan sohalar yuzasidan nazoratni amalga oshirsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining ayrim buyruqlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi markaziy apparati faoliyatida ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi”ni qo‘llash sohasini belgilash to‘g‘risida” 2020-yil 30-iyuldagi 131-son burug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Tashkiliy-nazorat va strategik rejalashtirish boshqarmasi (A. Ro‘ziyev) mazkur buyruqning vazirlik tarkibiy bo‘linmalariga yetkazilishini ta‘minlasin.

7. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimnamda qoldiraman.

**Adliya vaziri**



**R.DAVLETOV**

Toshkent shahar

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi markaziy apparati faoliyatida  
ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi”ni  
qo‘llash sohalari**

1. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi markaziy apparati faoliyatida ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi”ni qo‘llash sohalari:

yagona davlat huquqiy siyosatini yuritish, shuningdek:

huquq ijodkorligi faoliyatini muvofiqlashtirish va samaradorligini oshirish, shu jumladan tartibga solish ta‘sirini baholash hamda korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish;

davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini ilg‘or xorijiy tajriba va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari asosida tahlil va monitoring qilish;

davlat organlari va xo‘jalik birlashmalari faoliyatida huquqni qo‘llash amaliyotini izchil va bir xilda ta‘minlash bo‘yicha choralarni amalga oshirish;

nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini rivojlantirish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, ularning davlat organlari va tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorligini tashkil qilishga ko‘maklashish;

ma‘muriy tartib-taomillar sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va uslubiy ta‘minlash;

huquqiy targ‘ibotni amalga oshirish;

huquqiy xizmat ko‘rsatish tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlash;

fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha choralarni amalga oshirish;

qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli amalga oshirilishini ta‘minlash yuzasidan monitoringini yuritish;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha choralarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

davlat xizmatlari ko‘rsatilishi ustidan nazorat qilish;

davlat xizmatlari markazlari va FHDY organlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini takomillashtirish;

axborot tizimlari, resurslar va ma'lumotlar bazalarini joriy etish bo'yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatini nazorat qilish va samaradorligini baholash;

ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari va boshqa intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza va himoya qilish;

huquqiy ta'limni tashkillashtirish, yurisprudensiya sohasidagi tadqiqotlarni amalga oshirishni va sud ekspertlik faoliyatini rivojlantirish;

xalqaro va xorijiy tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasi manfaatlarining huquqiy himoyasini ta'minlash;

xalqaro-huquqiy hamkorlikni yo'lga qo'yish va mustahkamlash, xalqaro shartnomalarni huquqiy ekspertizadan o'tkazish;

siyosiy-huquqiy sohaga oid xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston Respublikasining o'rni oshirish bo'yicha choralar ko'rish.

## **O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining ayrim buyruqlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar**

1. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2019-yil 20-maydagi 158-um-son “Korrupsiya faktlari haqida ishonchli xabar berganligi uchun adliya organlari va muassasalari xodimlarini mukofotlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘ida:

a) 3-band quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

**“korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslar** – fuqarolar, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining yoxud davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi xizmatchisi;

**korrupsiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etish** – tayyorgarlik ko‘rilayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar berish yoxud korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etganligi uchun qonunchilik hujjatlariga muvofiq qidiruv e‘lon qilingan shaxslarni topishda yordam ko‘rsatish;

**korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashish** – korrupsiyaga oid jinoyatlarni tergov qilish va uni fosh etishda ahamiyatga ega bo‘lgan dalillar haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish yoki bunday toifadagi jinoyatlarni tergov qilish yoxud tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishda bevosita ko‘maklashish;

**korrupsiyaga oid ma‘muriy huquqbuzarliklar** – O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 611, 1931 va 1932-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar;

**korrupsiyaga oid jinoyatlar** – O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 167-moddasining ikkinchi qismi “g” bandi, 168-moddasining uchinchi qismi “v” bandi, 1929 va 19210, 205, 209 — 214-moddalari, 243-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarni mansab mavqeyidan foydalangan holda sodir etish hamda 301-moddasida ko‘rsatilgan jinoyatlar;

korrupsiyaga oid jinoyatlarni aniqlash va fosh etish bilan bog‘liq tezkor-qidiruv tadbirlarini hamda protsessual harakatlarni amalga oshiruvchi organlar (keyingi o‘rinlarda — korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlar) — O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti.”;

6) quyidagi tahrirdagi 6<sup>1</sup>–6<sup>3</sup>-bandlar bilan to'ldirilsin:

“6<sup>1</sup>. Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolar va jamoat tashkilotlarini huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtiroki uchun rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2018-yil 8-yanvardagi 15-son qarori talablari ushbu Nizom bilan tartibga solinadigan munosabatlarga tatbiq etilmaydi

6<sup>2</sup>. Quyidagilar korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirishning (keyingi o'rinlarda – rag'batlantirish) asosiy vazifalari hisoblanadi:

jamiyatda korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish hamda ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash;

korrupsiyaga oid jinoyatlarning barvaqt profilaktikasini ta'minlash, bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish;

aholining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu sohaga qo'shayotgan hissasi uchun munosib taqdirlash;

6<sup>3</sup>. Rag'batlantirish Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 829-son qarori bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomning 2-bobida belgilangan asoslarga ko'ra bir martalik pul mukofoti, tashakkurnoma yoki esdalik sovg'a shaklida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlar tomonidan amalga oshirildi”.

Б) 3- bob quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“

### **3-bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish tartibi**

9. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish masalasi korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlar huzurida tuziladigan maxsus komissiyalar tomonidan ko'rib chiqiladi.

Bunda respublika darajasidagi korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlar rag'batlantirish to'g'risidagi taqdimnoma bilan respublika maxsus komissiyasiga, ularning hududiy bo'linmalari tomonidan esa hududiy maxsus komissiyalarga chiqadilar.

10. Maxsus komissiyalar tomonidan rag'batlantirishga oid hujjatlar olingan kundan boshlab besh ish kuni ichida taqdim etilgan hujjatlarning to'liqliligi, asosiligi hamda ushbu Nizom talablariga rioya qilinganligi ko'rib chiqiladi.

11. Rag'batlantirish uchun taqdim etilgan hujjatlar to'liq emasligi hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 829-son qarori bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi

to'g'risidagi nizom talablariga rioya qilinmaganligi aniqlangan taqdirda, ikki ish kuni ichida qaytariladi.

Bunda, adliya organi va muassasi qaytarilish uchun asos bo'lgan holatlar bartaraf etgan holda taqdirda, tegishli hujjatlarni maxsus komissiyaga kiritgan tegishli korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organining suroviga ko'ra taqdim etadi.

12. Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organ maxsus komissiyaning qarori asosida bir ish kuni ichida bir martalik pul mukofoti yoki esdalik sovg'asi bilan taqdirlash haqida qaror chiqarganda yoki tashakkurnoma taqdirlash to'g'risida adliya organi va muassasining xabar bergan xodimning e'tiboriga yetkaziladi".

2.O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2019-yil 20-maydagi 158-umson "Korrupsiya faktlari haqida ishonchli xabar berganligi uchun adliya organlari va muassasalari xodimlarini mukofotlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'ida:

a) 3-band quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

**"korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslar** – fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining yoxud davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi xizmatchisi;

**korrupsiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etish** – tayyorgarlik ko'rilyotgan, sodir etilyotgan yoki sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar berish yoxud korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etganligi uchun qonunchilik hujjatlariga muvofiq qidiruv e'lon qilingan shaxslarni topishda yordam ko'rsatish;

**korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashish** – korrupsiyaga oid jinoyatlarni tergov qilish va uni fosh etishda ahamiyatga ega bo'lgan dalillar haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish yoki bunday toifadagi jinoyatlarni tergov qilish yoxud tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishda bevosita ko'maklashish;

**korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarliklar** – O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 611, 1931 va 1932-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar;

**korrupsiyaga oid jinoyatlar** – O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 167-moddasining ikkinchi qismi "g" bandi, 168-moddasining uchinchi qismi "v" bandi, 1929 va 19210, 205, 209 — 214-moddalari, 243-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarni mansab mavqeyidan foydalangan holda sodir etish hamda 301-moddasida ko'rsatilgan jinoyatlar;

korrupsiyaga oid jinoyatlarni aniqlash va fosh etish bilan bog'liq tezkor-qidiruv tadbirlarini hamda protsessual harakatlarni amalga oshiruvchi organlar (keyingi o'rinlarda — korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlar) — O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi,

Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti.”;

b) quyidagi tahrirdagi 6<sup>1</sup>–6<sup>3</sup>-bandlar bilan to‘ldirilsin:

“6<sup>1</sup>. Vazirlar Mahkamasining “Fuqarolar va jamoat tashkilotlarini huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtiroki uchun rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2018-yil 8-yanvardagi 15-son qarori talablari ushbu Nizom bilan tartibga solinadigan munosabatlarga tatbiq etilmaydi

6<sup>2</sup>. Quyidagilar korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirishning (keyingi o‘rinlarda – rag‘batlantirish) asosiy vazifalari hisoblanadi:

jamiyatda korrupsiyaning barcha ko‘rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish hamda ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta‘minlash;

korrupsiyaga oid jinoyatlarning barvaqt profilaktikasini ta‘minlash, bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish;

aholining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu sohaga qo‘shayotgan hissasi uchun munosib taqdirlash;

6<sup>3</sup>. Rag‘batlantirish Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 829-son qarori bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 2-bobida belgilangan asoslarga ko‘ra bir martalik pul mukofoti, tashakkurnoma yoki esdalik sovg‘a shaklida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlar tomonidan amalga oshirildi”.

d) 3-bob quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

**“3-bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish masalasini ko‘rib chiqish tartibi**

9. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish masalasi korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlar huzurida tuziladigan maxsus komissiyalar tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Bunda respublika darajasidagi korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlar rag‘batlantirish to‘g‘risidagi taqdimnoma bilan respublika maxsus komissiyasiga, ularning hududiy bo‘linmalari tomonidan esa hududiy maxsus komissiyalarga chiqadilar.

10. Maxsus komissiyalar tomonidan rag‘batlantirishga oid hujjatlar olingan kundan boshlab besh ish kuni ichida taqdim etilgan hujjatlarning to‘liqliligi, asoslilik hamda ushbu Nizom talablariga rioya qilinganligi ko‘rib chiqiladi.

11. Rag‘batlantirish uchun taqdim etilgan hujjatlar to‘liq emasligi hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 829-son qarori bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi

to'g'risidagi nizom talablariga rioya qilinmaganligi aniqlangan taqdirda, ikki ish kuni ichida qaytariladi.

Bunda, adliya organi va muassasi qaytarilish uchun asos bo'lgan holatlar bartaraf etgan holda taqdirda, tegishli hujjatlarni maxsus komissiyaga kiritgan tegishli korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organining suroviga ko'ra taqdim etadi.

12. Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organ maxsus komissiyaning qarori asosida bir ish kuni ichida bir martalik pul mukofoti yoki esdalik sovg'asi bilan taqdirlash haqida qaror chiqarganda yoki tashakkurnoma taqdirlash to'g'risida adliya organi va muassasining xabar bergan xodimning e'tiboriga yetkaziladi".

3. O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2020-yil 24-fevraldagi 42-um-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatida:

a) 11-bandning "g" kichik bandi oltinchi, yettinchi xatboshilari, "e" kichik bandining to'rtinchi xatboshisidagi "Kadrlar" so'zi "Inson resurslari" so'zlari bilan almashtirilsin;

b) quyidagi mazmundagi 13<sup>1</sup>-band bilan to'ldirilsin:

"Adliya organi xodimi Davlat ekspertisasi o'tkazilayotgan intellektual mulk obyektlariga bevosita yoki bilvosita mulkiy huquqlarga ega bo'lgan yuridik shaxslar, nodavlat notijorat tashkilotlarining ta'sischisi, mulkdori yoki oxirgi benefitsiari bo'lsa u holda ularning talabnoma hujjatlari o'zi tomonidan davlat ekspertizasidan o'tkazishi taqiqlanadi.";

d) quyidagi mazmundagi 22<sup>1</sup>-band bilan to'ldirilsin:

"22<sup>1</sup>. Har bir xodim o'ziga hisoblangan mukofot puli va (yoki) belgilangan ustama miqdori to'g'risida savol bilan Vazirlikning Inson resurslari boshqarmasiga (adliya organining Inson resurslari bo'limiga) yoki Moliya-iqtisod boshqarmasiga (adliya organining Moliya-iqtisod bo'limiga) murojaat qilishi mumkin.

Bunda, Vazirlikning Inson resurslari boshqarmasi (adliya organining Inson resurslari bo'limi) yoki Moliya-iqtisod boshqarmasi (adliya organining Moliya-iqtisod bo'limi) xodimi murojaat qilgan xodimga unga mukofot puli va (yoki) ustama belgilanishi tartibi to'g'risida vijdonan va to'liq ma'lumot berishi lozim.";

e) quyidagi mazmunda 4<sup>1</sup>-paragraflar bilan to'ldirilsin:

#### **"§4<sup>1</sup>. Davlat xizmatlarini ko'rsatish**

24<sup>1</sup>. Ma'muriy ish yuritishda, shu jumladan davlat xizmatlarini ko'rsatish hamda murojaatlarni ko'rib chiqishda adliya organlari va muassasalari xodimlari:

jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlarini O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari va adliya organlarining ichki hujjatlariga muvofiq halol, adolatli va obyektiv asosda ko'rsatishlari lozim;

to'lov sifatida naqd pul mablag'larini, shuningdek, naqd pulsiz o'tkazmalarni qabul qilish taqiqlanadi;

tegishli elektron tizimga ma'lumot va hujjatlarni kiritish va ulardan foydalanish faqat o'zining xizmat kabinetidan foydalangan holda amalga oshirilishi lozim;

a) o'z ish yurituvidagi jismoniy va yuridik shaxslarning hujjatlari bo'yicha ishdan tashqari vaqtda va ish joyidan tashqarisida muloqot qilishlari taqiqlanadi;

b) uchrashuvlarni belgilangan vaqtda va suhbatni audio yozib olish qurilmasiga ega videokuzatish uskunasi bilan jihozlangan xonadan boshqa joyda va Vazirlikning, adliya organi yoki muassasasining ikkita xodimi ishtirokisiz o'tkazilishi taqiqlanadi;

d) xatti-harakatlarni bajarishga va'da, ruxsat, ma'qullash, kafolat sifatida talqin qilinishi mumkin bo'lgan har qanday xatti-harakatlarni amalga oshirish taqiqlanadi.

O'z ish yurituvidagi jismoniy va yuridik shaxslarning hujjatlari bo'yicha ishdan tashqari vaqtda va ish joyidan tashqarisida muloqot qilgan holatlarda bevosita rahbariga, adliya organi yoki muassasasining rahbariga xabar berishi lozim.

24<sup>2</sup>. Vazirlik davlat xizmatlari sohasida korrupsiyaviy harakatlarning oldini olish maqsadida quyidagilarni ta'minlaydi:

barcha ko'rsatiladigan davlat xizmatlari ro'yxati, talab etiladigan hujjatlar, narxlar, shuningdek xizmatlarni taqdim etish muddatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni Vazirlikning rasmiy veb-saytida joylashtirilishi va istalgan foydalanuvchi uchun ochiq bo'lishi lozim;

Vazirlik davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazish bo'yicha faol choralar ko'radi, ya'ni jismoniy va yuridik shaxslarga shaxsiy kompyuterlar va shaxsiy elektron qurilmalardan foydalangan holda davlat xizmatlarini olish uchun arizalarni topshirish, shuningdek monitoringni amalga oshirish uchun sharoit yaratadi;

ishonch aloqa kanallarining samarali ishlashini ta'minlaydi.”;

e) 5-paragrafning nomlanishi quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“Kontragentlar va uchinchi shaxslar bilan o'zaro munosabatlar hamda mulkni boshqarish”;

f) quyidagi mazmundagi 27<sup>1</sup>-band bilan to'ldirilsin:

“27<sup>1</sup>. Adliya organlari va muassasalari mulkni boshqarishda:

adliya organlari va muassasalarining xususiy sherigi va kontragentlardan O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablar va taqiqlarga rioya qilishni talab qiladi;

hududiy adliya organlari va muassasalarida faoliyat yuritadigan tijorat tashkilotlar tomonidan shartnoma va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq xizmatlar ko'rsatilishini nazorat qiladi;

kontragent bilan mulkni boshqa shaxsga o'tkazish, ijaraga berish, reklama joylashtirish, xizmatlarni outsorsingga o'tkazish bilan bog'liq har qanday shartnoma Vazirlik tomonidan ochiq va raqobatli xarid jarayoni natijalariga ko'ra tuzilishi kerak.”;

g) quyidagi mazmundagi 30<sup>1</sup>-band bilan to'ldirilsin:

“30<sup>1</sup>. Yuqori turuvchi adliya organlari uning tarkibiy tuzilmalari xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurash qoidalari va talablariga rioya etilishini nazorat qiladi.

Adliya organlari va muassasalari tasodifiy reydlar, “sirli mijoz” tadbiri, shuningdek, davlat xizmatlari ko'rsatish elektron tizimidan foydalangan holda davlat xizmatlari ko'rsatish jarayonlarini nazorat, tahlil va monitoringini amalga oshiradi.”;

g<sup>4</sup>) 31-banddagi “nazorat qilish uchun adliya organlari” so'zlaridan keyin “va muassasalari” so'zlari bilan to'ldirilsin.

h) 34-bandda va 38-bandning ikkinchi xatboshisidagi “1008” raqamidan so'ng “yoki “1148” so'zlari bilan to'ldirilsin;

j) 43-banddagi “haqida xabar berish uchun aloqa kanallari to'g'risidagi nizomda” so'zlar “O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining korrupsiyaga oid harakatlar to'g'risida axborot berish uchun aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va qayta ishlash reglamentida” so'zlari bilan almashtirilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2020-yil 24-fevraldagi 43-um-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi adliya organlari va muassasalari xodimlarining odob-axloq qoidalarida:

a) quyidagi mazmundagi 5<sup>1</sup>-band bilan to'ldirilsin:

“5<sup>1</sup>. Adliya vazirligi tizimiga kiruvchi tashkilotlar va muassasalar zaruratga ko'ra, o'z faoliyati xususiyatlarini hisobga olgan holda, ushbu Qoidalar asosida markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo'linmalar xodimlari uchun majburiy bo'lgan xodimlarning idoraviy odob-axloq qoidalarini ishlab chiqishlari va tasdiqlashlari mumkin”;

b) 6-banddagi “qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslar, ya'ni” so'zlar chiqarib tashlansin;

d) quyidagi mazmundagi 7<sup>1</sup>-band bilan to'ldirilsin:

“7<sup>1</sup>. Ma'muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari xodimlari quyidagi tamoyillarga amal qilishlari kerak:

**murojaatchi doimo haqdir:** har doim murojaatchining savolini va murojaatini to'g'ri shakllantirishda yordam beradi va unga malakali javob qaytaradi;

**professionallik:** davlat xizmatlarini tezkor, to'liq va sifatli ko'rsatadi;

**har bir murojaatchiga e'tibor:** har bir murojaat etuvchi va uning talablari o'ziga xos ekanligini anglab yetgan holda diqqat bilan tinglashadi;

**murojaatchining vaqtini tejash:** murojaatchilarning talablarini samarali va o‘z vaqtida qondirishlari, keraksiz savollar va ishlardan xalos bo‘lish, shuningdek, ularga xizmat ko‘rsatishni tezlashtirish va soddalashtirishdan iboratdir;

**ochiqlik va qulaylik:** davlat xizmatini olishni istagan har bir fuqaro, qulay kutish, xizmatni taqdim etish va olish sharoitlariga ega davlat xizmatlari markazlariga tashrif buyurishi mumkin;

**xushmuomalalik va samimiylik:** har bir murojaat etuvchini aziz mehmon sifatida mehribonlik, tabassum va xush kayfiyat bilan kutib olishadi;

**davlat xizmatlarini ko‘rsatish uchun shaxsan javobgarlik:** davlat xizmatining o‘z vaqtida va sifatli taqdim etilishi uchun javobgardir. Har bir murojaatchi qat’iy mezonlar asosida xizmat ko‘rsatishni baholay oladi;

**fuqarolarga yordam berish–quvonch va sharaf:** har bir xodim mamlakatimiz rahbarining “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan ulug‘vor g‘oyasini so‘zsiz amalga oshirishga xizmat qiladi.”;

e) 11<sup>1</sup>-band ikkinchi xatboshisidagi “Kadrlar” so‘zi “Inson resurslari” so‘zlari bilan almashtirilsin;

f) 19-bandda:

birinchi xatboshisida “Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati” so‘zlaridan keyin “va ushbu Qoidalar” so‘zlari bilan to‘ldirilsin;

quyidagi mazmundagi ikkinchi-to‘rtinchi xatboshilar bilan to‘ldirilsin:

“Adliya organlari va muassasalari xodimlari tomonidan rasmiy delegatsiyalar tarkibida, rasmiy tadbirlarda, bayramlarda olingan har qanday sovg‘alar summasidan qat’iy nazar adliya organlari va muassasalarining balansiga natura shaklida kirim qilinadi.

Adliya organlari va muassasalari xodimlari tomonidan ushbu bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatib o‘tilgan holatlar yuzasidan qabul qilib olingan sovg‘alarni adliya organlari va muassasalarining xo‘jalik bo‘linmalariga ularni qabul qilib olishga oid dalolatnoma bilan birga topshirishi lozim.

Adliya organlari va muassasalari xodimlari tomonidan qabul qilib olingan sovg‘alarning ro‘yxatini yuritish Vazirlikda ishlar boshqarmasi, adliya organlari va muassasalarida xo‘jalik bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladi.”;

g) quyidagi mazmundagi 19<sup>1</sup>-band bilan to‘ldirilsin:

19<sup>1</sup>. Nepotizm va favoritizm holatlarining oldini olish maqsadida o‘zining nazorati ostidagi tashkilotlardan hamda bo‘ysunuv tartibida belgilangan tashkilotlardan har qanday bayram (yangi yil va boshqa bayram kunlari) munosabati bilan bog‘liq holda ushbu Qoidalarning 15-bandida sanab o‘tilgan sovg‘alar va boshqa moddiy boyliklarni olish taqiqlanadi;

g‘) 30-bandda:

ikkinchi xatboshisi quyidagicha tahrirlansin:

“adliya organlari va muassasalarining xodimlari uchun –“1008” va “1148” telefonlari yoki bevosita Inson resurslari boshqarmasi (bo‘limi)ga”

to‘rtinchi xatboshisidagi “telefoni” so‘zi “va “1148” telefonlari” so‘zlari bilan almashtirilsin.